

SURXON SO'ZANALAR TARIXIGA NAZAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8354441>

Shokirova Gulhayo

TerDU Milliy libos va san'at fakulteti

Dizayn yo`nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya

Surxon so'zanalari tarixiga nazar xaqida ma'lumotlar berilgan

Kalit so'zlar

Surxon so'zana, Surxon kashta,

Surxon so'zanalari - O'zbekiston amaliy bezak san'ati turlari orasida o'zining qadimiy an'alariga ega bo'lgan san'at turi hisoblanib O'zbekistonning yirik savdo hunarmandchilik markazlari va qishloqlarida keng tarqalgan. San'atning ushbu turi o'zining poetik rang - barangligining saqlab qolishi bilan birga xalq orasida qadrlanib, o'z mohiyatini yo'qotmadi. Surxon so'zanalari asosan 6 ta hududiy guruhlariga, ya'ni maktablarga bo'linadi. Bular, Surxon, Surxon, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent hamda Farg'ona kashtachiligi maktablari. Yurtimizning turli viloyatlarida Surxon so'zanalarning o'ziga xos maktablari mavjud. So'zana-yu palaklarga nazar tashlar ekanmiz, ularda aks etgan manzaralarni ko'rib, o'zbek ayolining bilim va salohiyatiga tan bermaslik mumkin emas, - deydi O'zbekiston Badiiy akademiyasi a'zosi, rassom Botir Gulmirzaev.

So'zanalari asosan ayollar qo'l mehnatining mahsuli sanaladi. Ta'kidlash kerakki, har bir so'zana yoki palakda olam-olam sir-sinoat mujassam. Ularda nabotot dunyosidan tortib, koinot kengliklarigacha bo'lgan ko'z ilg'amas ajoyibotlar turli shakl va kompozitsiyalarda aks ettirilgan. Surxon kashtalari asosan "bosma" uslubi bilan tikiladi va naqshlarning cheti zanjirsimon uslub bilan aylantiriladi. Kashta ranglari och ranglar bilan tikilgan. Surxon kashtachiligida quyidagi kashta turlari va badiiy buyumlar tikiladi: so'zana, nimso'zana, takiyapo'sh, joynamoz, joypo'sh, zardevor, gulko'rpa, dastorpech, belbog', qo'lro'mol, yostiq, oynaxalta, choyxalta, choyshab. Kashta asosan bo'z, chit, satin, shoyi, baxmal movutga tikiladi. Iplari ipakdan yigirilib, bo'yoqlari tabiiy o'simliklardan olinadi, lekin hozirgi kunda sun'iy toladan yigirilgan va kimyoviy bo'yoqlar bilan bo'yalgan iplar Surxon so'zanalari ishlatilmoqda.

Surxon maktabida soʻzana asosan oq fondagi gulli naqshlarni aks ettirishi bilan farqlanadi. Qush va jonivorlar ramzi ularni yanada toʻldiradi, oʻzgacha maʼno va mazmun bagʻishlaydi. Surxon Surxon soʻzanlari maktabi yopiq kompozistiyali boʻlib, markazi va cheti zanjirli kashta bilan ajratilgan. Samarqand Surxon soʻzanlari maktabiga kelsak, naqshi toʻq qizil rangdan iborat boʻlib, aylana shakldagi toʻpbarggul soʻzana atrofiga joylashtiriladi. Urgutlik chevarlar esa asosan oppoq bosma chokdan foydalanishadi. Ulardagi toʻq qizil va sariq gulli naqshlar quyosh ramzini ifodalaydi. Soʻzana markazida katta aylana, unga nisbatan chorak kattalikdagi toʻrt dona aylana toʻrt chetiga joylashtirilgan boʻlsa, bilingki u Shahrisabz Surxon soʻzanlari maktabiga taalluqli. Toshkentlik chevarlar esa katta aylanali qoramtir qizil rangli palak mato ustiga zich qilib tikilgan gulkoʻrpani afzal koʻradilar.

Surxon soʻzanlari sanʼatining qadimgi maktablaridan boʻlmish Surxondaryo viloyatining milliy Surxon soʻzanlari, sanʼatini oʻziga xos xususiyatini, tabiiy boʻyoqlarini qoʻllanilishi texnologiyasi va bezaklarining qadimiy nusxalarini tikilishi, shu kunda xalqimiz diqqat eʼtiborini oʻziga tortdi. Surxon Surxon soʻzanlari sanʼati bilan tanishish, uni oʻrganish yoki avlodga etkazish kerak. Surxon kashtalarining oʻziga xos belgilaridan biri ularda “yoʻrma” choki mahorat bilan qoʻllanilishida va havo rang, gul rang, binafsha rang, pushti va och sariq rang, qizil malina va koʻk ranglar bilan uygʻunlashidadir.

Surxon kashtalarida “yoʻrma” chokdan tashqari, kompozistiyasi, tuzilishi va gullarni ham juda xilma - xildir. Mato yuziga bir tekis joylashgan ingichka shoxdagi gullar shoxlar bilan oʻralgan yoʻrma doʻzi qilinganligi bilan ajralib turadi. Surxon maktabida esa, koʻproq igna bilan birga yoʻrma choki bajarilgan.

Surxon chevarlari ipak ipni chap - rost qilib chillikda tob berib bajarsalar, Surxonliklar birishim iplari bilan chap rost toblamasdan kashta tikishgan.

Surxon kashtalari asosan oq, kulrang, malla, tabiiy rangli karbos, qizil satin, oq surp va qoʻngʻir rang rensiga tikilgan boʻlsa, Surxon kashtalari oq karbos, rangli adras, shoyi va hisori matolarga bajarilganligi bilan farqlanadi. Surxon soʻzanalari joypoʻsh va joynamozlari kompozistiyasi anʼanaviy markaziy maydon, keng hoshiya va 2 ta tor hoshiyalardan iborat, markaziy maydonda simmetrik naqshlar ketma - ket holatda joylashtiriladi. Keng hoshiyada asosan markaziy maydondagi naqshlar simmetrik holatda takrorlanadi yoki “islmiy” holatda takrorlanadi, naqshdan iborat boʻladi. Ikkita tor hoshiyada bir - biriga oʻxshash geometrik “islmiy” ngaqsh, “miandr”, “mavj” yoki “sebarga” dan ikki yoki uch qator yoʻrma chiziqlari oʻtkazilgan. Kompozistiyani birinchi holatda asosan geometrik doiralar, “toʻpbarggullar”, butalar va shoxchalar tashkil qiladi. Ochiq qolgan joylarga barg,

shoxcha, ko'zacha, oftoba, ayrim hollarda qushlar tasviri tikib to'ldiriladi. Kashtalarda - butagul, gul daraxt, qo'shko'rak, tagalak, anguri, shobarg kabi shaqshlar uchraydi. Ba'zi hollarda katta binolarning arab yozuvida forsiy va turkiy tillardagi baytlar tikib bezatishgan. Odatda, yirik katta buyumlari nusxalarini maxsus tajribaga ega bo'lgan chizmakash - nusxachalar chizishgan. Chizmakash naqshlarni "rangli siyo" - qora tabiiy bo'yoqlar bilan chizgan. Kashta kompozitsiyasi chizilayotganda, matoh yaxshi taxta qilib tikilgan, uning dioganallari bo'yicha qatlab markazi topilgan, keyin asosiy maydon va keng hoshiyaga ajratilgan. Har bir kashta nusxasini yaratish chizmakash uchun ijodiy jarayon hisoblangan. U hech vaqt tayyor ulgudan nusxa kuchirmagan. Ammo u kashta nusxasini kashtachiga ham chizma tariqasida bermagan. Uning hunari shaxsiy sirga ega deb hisoblangan. Kashtachilar kashta tikishda ayrim unsurlarni tikmay qoldirishgan. Buning ma'nosi, kashtachi chevarga ko'z tegmasin. "Chashmi bulbul", "dandon", "dutarafa dandon", "zanjiri", "barra tishi" naqshlari kashta qismlarini chegaralashda qo'llanilgan.

Surxon kashtachilari ranglarni mahalliy tilda: pistoqi yashil, nofarmon - siyohrang gulobi ko'k, shirchoyi - nilobi, gilosi - to'q qizil, kabo'ti - yashil, siyoh - qora, zard - sariq, xokistar - kulrang.

Farg'ona kashtachiligi maktabida so'zana qoramtir yashil va binafsha rang ipak gazlama yoki satinga nafis naqshlar tikiladi. So'zana kashtasi yorqin va o'ziga xosdir. Yorqin ranglar, jimjimador naqshlar insonni bir qarashdayoq o'ziga jalb eta oladi.

Qorong'u xonaga yorug'lik va yorqinlik kiritadi. Shuningdek, uni bugungi kunda zamonaviy mehmonxona, yotoqxona, hatto bolalar xonasiga ham ilib qo'yish mumkin. Endilikda o'zbek so'zanalaridagi naqshlar xorijlik dizaynerlarning ham diqqatini tortmoqda. Zamonaviy dizaynerlar o'z ishlarida so'zanadagi naqsh va ranglardan foydalanishni ma'qul ko'rishadi. Bu o'zbek so'zanasiga bo'lgan qiziqish xalqaro miqyosda kun sayin ortib borayotganini anglatadi. Bugungi kunda - hatto o'zimiz va xorijda ishlab chiqarilayotgan devorga ilinadigan gilam, mebel qoplamalari, yostiq yoki pardalarda ham so'zana elementlaridan foydalanilayotganligini kuzatish mumkin.

So'zanalarimiz bugungi kunda jahon bozoriga chiqmoqda. Uning bu qadar tez shuhrat qozonishi, avvalo nafis, serjilo va betakrorligi bilan izohlanadi. Mashhur inter'yer - dizaynerlar so'zanadan dekorativ detal sifatida ham foydalanishmoqda. Haqiqiy so'zana, albatta, qo'lda tikilishi kerak, unda ko'proq uzum, anor, rang - barang gul, qush va aylana shaklidagi naqshlar aks etadi. Bugungi kunda ko'rpalarni ham yorqin so'zana naqshlari bilan bezash urfga kirib bormoqda,

chunki har qanday soʻzana interʻyerga mos tushaveradi. Uning yordamida rangga urgʻu berish, yostiq, dasturxon, gilamcha, karkas panellarga ham oʻzgartirish kiritish mumkin. Jahon interʻyer dizayniga doir saytlarda faqat qoʻlda tikilgan soʻzanaga eʻtibor qaratish lozimligi, texnika vositasida bosilgan soʻzana naqshlarni tanlamaslik tavsiya qilinadi. Milliy soʻzanalarimizga boʻlgan qiziqish xorijda ham kun sayin ortib borayotganidan faxr va gʻurur qilamiz. Ana shunday sirli, serjilo, maʻno va mazmunga, tasvir, naqshu nigorga boy soʻzanalar qadr topib, dunyo miqyosida ommalashayotgani, eʻtirof etilayotgani oʻzbek xalq amaliy sanʻati va milliy hunarmandchiligimizga berilgan yuksak bahodir. Zotan, xalqimizning noyob durdonasi boʻlgan milliy meros va anʻanalarimiz barhayotdir.

ADABIYOTLAR ROʻYHATI:

1. Юсупович, Қўшоқов Сафарали. "ЗАРДУШТИЙЛИК ДИНИ ТАЛҚИНИ ВА УНИНГ МОДДИЙ МАДАНИЯТДА АКС ЭТИШИ." Scientific Impulse 1.12 (2023): 246-251.
2. Isaev, O. A. "The Categories of Early Farmers Residing in the Surkhan Oasis in the 20-30s of the 20th Century." European Journal of Learning on History and Social Sciences 1.1 (2023): 108-111.
3. Isaev, O. A. "The Categories of Early Farmers Residing in the Surkhan Oasis in the 20-30s of the 20th Century." European Journal of Learning on History and Social Sciences 1.1 (2023): 108-111.
4. Oybek, PhD Isaev. "In the Study of the History of Surkhandarya in the 30s of the XX Century, as a Historical Source." Eurasian Journal of History, Geography and Economics 7 (2022): 100-102.
5. Isaev, O. A. (2021). From the Memories of Those Displaced as a Result of the Policy of Resettlement in the 1920-1930s of the XX Century (On the Example of the Surkhandarya Oasis). CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 2(10), 62-65.
6. Tukhtaev, Abdugani K. "The Role of Tourism in the Surkhandarya Oasis." International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding 9.1 (2022): 169-172.
7. Tukhtaev, Abdugani K. "The Role of Free Economic Zones in the Economy of Uzbekistan." International Journal of Social Science Research and Review 5.1 (2022): 1-4.

8. Тухтаев, Абдугани Киличович, and Бахтияр Сатторович Сафаров. "ВЗГЛЯД НА ИСТОРИЮ МИРОВЫХ ДЕНЕГ." Вестник науки и образования 24-1 (102) (2020): 35-38.
9. Тухтаев, Абдугани Киличович. "Роль сельского хозяйства в экспортном потенциале Узбекистана." Бюллетень науки и практики 6.10 (2020): 174-178.
10. Турсунов, С., and А. Тўхтаев. "Жарқўрғон." Т.: Фан (2008).
11. Kushokov , S. (2023). EARLY RELIGIOUS SIGNS OF THE TERRITORIES OF UZBEKISTAN. Research and Implementation, 1(3), 71-77
12. Yusupovich, Kushakov Safarali. "ORTA OSIYODA ILK DINIY QARASHLARNING OZIGA XOSLIGI." Scientific Impulse 1.11 (2023): 115-120.
13. Yusupovich, Kushokov Safarali. "FACTORS WHICH ARE THE BASIS OF THE FIRST RELIGIOUS VIEWS." Scientific Impulse 1.11 (2023): 140-145.
14. Ramazanovich, M. N., & Abdunazarovich, P. B. (2021). Protection of Family and Youth in the Constitution of the Republic of Uzbekistan. Middle European Scientific Bulletin, 18, 221-223.
15. Расулов Х. Сиёсат-маданият, ходиса ва фан сифатида //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 7. – С. 691-702.
16. Расулов Х. М. Шарқ ва ғарб: сиёсий ва ҳуқуқий маданият компонентлари уйғунлиги //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2020. – №. SI-1№ 3.
17. Расулов, Х. М. (2022). СИЁСИЙ МУНОСАБАТЛАРДА СИЁСИЙ МАДАНИЯТ. Academic research in educational sciences, 3(NUU Conference 2), 863-867.
18. Rasulov, H. M. (2021). ELECTION PHENOMENON I THE PROBLEM OF IMPROVING THE ELECTRIC CULTURE OF THE POPULATION. ВОСТОЧНО ЕВРОПЕЙСКИЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ, 75(part 6), 28.
19. Mina, Simona. "Political decentralization and promoting participative culture, solutions in counteracting the financial global crisis." Managerial Challenges of the Contemporary Society 2 (2011): 176-180.
20. Расулов Х. М. СИЁСИЙ МУНОСАБАТЛАРДА СИЁСИЙ МАДАНИЯТ //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. NUU Conference 2. – С. 863-867.
21. Расулов Х. М. ТЕХНОЛОГИИ ОБЪЯСНИТЕЛЬНО-РЕПРОДУКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ //Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2020. – №. 3. – С. 45-49.

22. Ramazanovich, N. M. (2022). IMPORTANCE AND ANALYSIS OF THE CONCEPT OF CIVIL RIGHTS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(10), 322-328.

23. Ramazanovich, M. N., & Kabilovich, B. O. (2021). Constitutional and Legal Framework for Providing International Peace. Middle European Scientific Bulletin, 18, 218-220.

24. Mallaev, N. R., & Djalilov, S. S. (2021). Political and Legal Mechanisms of the Fight against Corruption in Uzbekistan and High Effective Measures against It. International Journal of Development and Public Policy, 1(7), 1-4.

25. Mallaev, N. R., & Djalilov, S. S. (2021). Establishment of Legal Mechanisms in the Fight Against Corruption in Uzbekistan. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 12, 4-8.

26. Ikromov, N. M. (2021). The Rule of the Ancient Bactrian Cavalry in the History of the Peoples of Central Asia. Central Asian Journal of Social Sciences and History, 2(10), 111-118.

27. Ikromov, N. M. (2021). KAVIS'REIGN IN THE FIRST TERRITORIAL STATEHOOD OF ANCIENT BACTRIA. World Bulletin of Social Sciences, 4(11), 77-81.

28. Ikromov N. M. TERRITORIAL DIVISION OF THE ANCIENT BACTRIA COUNTRY //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. - 2022. - T. 10. - №. 12. - C. 911-916.

29. Ikromov N. M. KAVIS'REIGN IN THE FIRST TERRITORIAL STATEHOOD OF ANCIENT BACTRIA //World Bulletin of Social Sciences. - 2021. - T. 4. - №. 11. - C. 77-81.

30. Икромов Н. Қадимги Бактрия илк худудий давлатчилигида кавийлар ҳукмронлиги //Общество и инновации. - 2021. - Т. 2. - №. 10/S. - С. 127-135.

31. Ikromov N. M. The Rule of the Ancient Bactrian Cavalry in the History of the Peoples of Central Asia //Central Asian Journal of Social Sciences and History. - 2021. - Т. 2. - №. 10. - C. 111-118.

32. Ahmedova G. O. ATIONAL, REPERTOIRE, TEACHER, CREATION, ART, OASIS, PEOPLE, STUDENT //Theoretical & Applied Science. - 2020. - №. 7. - C. 74-77.

33. Oskinovna, Ahmedova Gulchehra. "SPIRITUAL FOUNDATIONS OF THE HEROES OF UZBEK NATIONAL EPICS." Scientific Impulse 1.11 (2023): 97-102.

34. Annaeva Z. STUDY OF ENVIRONMENTAL PROBLEMS IN UZBEKISTAN AT THE LEVEL OF STATE POLICY //Research and implementation. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 85-91.

35. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.

36. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. Universum: технические науки, (8-1 (77)), 27-29.

37. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIM TIZIMIDA KO'ZI OJIZ O'QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993.

38. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.

39. Boronov, Abdulhakim. "EXPRESSION OF THE IDEA OF INTERNATIONAL HARMONY IN THE ACTIVITIES OF NATIONAL-CULTURAL CENTERS." Research and implementation 1.3 (2023): 78-84.

40. Musurmongulovna A. Z. FACTORS AND RECOMMENDATIONS THAT CAUSED ENVIRONMENTAL DEGRADATION IN UZBEKISTAN //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 1. – №. 11. – С. 103-108.

41. Holliyevich B. A. SOCIAL COOPERATION IN INDEPENDENT DEVELOPMENT //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 1. – №. 11. – С. 134-139.

42. Аннаева З. М. ЎЗБЕКИСТОНДА ЭКОЛОГИК ХОЛАТНИ БАРҚАРОРЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 1. – №. 11. – С. 109-109.